



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 11 | pp. 446-453 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI



Ismailov Naufal Nadirovich

Farg‘ona politexnika instituti mustaqil izlanuvchisi.

e-mail: ismailov.naufal@mail.ru

Annotatsiya. Bugungi kunda konsolidatsiyalashgan hisobotni tayyorlash muammosi butun iqtisodiy hamjamiyat oldida turgan dolzarb masalalardandir. Chunki, faqatgina bunday hisobotda bir nechta korxonalar guruhining va unga kiruvchi alohida bo‘lim korxonaning haqiqiy moliyaviy ahvolini tavsiflovchi ma’lumotlarni olish mumkin. O‘zbekiston ham bugun jahon iqtisodiyoti qo‘shilish, global iqtisodiy tizimning bir qismi sifatida o‘z o‘rnini topishga va egallashga harakat qilmoqda. Shu boisda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlariga o‘tishi jarayoni tobora jadallashib, dolzarblashib bormoqda. Biz ushbu maqola doirasida ushbu jarayonlarni hisobga olgan holda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni shakllantirishning zamonaviy tendensiyalarni haqida mulohaza yuritdik. Zero, MHXSga talablariga muvofiq, sho‘ba korxonalarga ega bo‘lgan barcha korxonalar konsolidatsiyalashgan hisobotni tuzishi shart.

Kalit so‘zlar: jahon tovar bozorlari, konsolidatsiyalashgan biznes, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobot, milliy buxgalteriya standartlari, guruh tarkibiga kiruvchi kompaniyalar.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ

Аннотация. На сегодняшний день проблема формирования консолидированного отчета является одной из актуальных проблем, стоящих перед всем экономическим сообществом. Потому что только из такого отчета можно получить информацию, характеризующую реальное финансовое состояние нескольких групп предприятий и отдельного подразделения, входящего в него. Сегодня Узбекистан также стремится найти и занять свое место в мировой экономике, как часть глобальной экономической системы. В связи с этим все более ускоряется и актуализируется процесс перехода финансовой отчетности на международные стандарты. В рамках данной статьи мы обсудили современные тенденции формирования консолидированной финансовой отчетности с учетом этих процессов. Ведь в соответствии с требованиями МСФО все предприятия, имеющие дочерние предприятия, обязаны составлять консолидированный отчет.

Ключевые слова: мировые товарные рынки, консолидированный бизнес, консолидированная финансовая отчетность, финансовая отчетность, национальные стандарты бухгалтерского учета, компаний входящих в группу.

CURRENT TRENDS IN THE FORMATION OF CONSOLIDATED FINANCIAL STATEMENTS

Abstract. Today, the problem of forming a consolidated report is one of the urgent problems facing the entire economic community. Because only from such a report it is possible to obtain information characterizing the actual financial condition of several groups of enterprises and a separate division included in it. Today, Uzbekistan is also striving to find and take its place in the global economy, as part of the global economic system. In this regard, the process of financial reporting transition to international standards is increasingly accelerating and updating. In this article, we discussed current trends in the formation of consolidated financial statements based on these processes. Indeed, in accordance with the requirements of IFRS, all enterprises with subsidiaries are required to prepare a consolidated report.

Keywords: global commodity markets, consolidated business, consolidated financial statements, financial statements, national accounting standards, companies belonging to the group.

Kirish qismi. Jahon tovar bozorlari, biznes va kapital transformatsiyasi sodir bo'layotgan jarayonlarda xo'jalik yurituvchi subyektlar, ayniqsa ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega kompaniyalar faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, ular haqidagi axborotlarni yanada kengroq, aniqroq oshkor etish, barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida biznes-jarayonlarni samarali boshqarish uchun ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish usullarini takomillashtirish zarurligini taqozo etmoqda.

Konsolidatsiyalashgan biznes yagona biznesni ifodalovchi bir nechta yuridik shaxslardan iborat bo'ladi, hozirgi davrda zamonaviy yuqori riskli iqtisodiyotda, ayniqsa, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sohalar va lokomotiv tarmoqlarda konsolidatsiyalashgan biznes tobora muhim rol o'ynamoqda. Konsolidatsiyalashgan biznesning afzalliklari — bu katta masshtab miqyosida yuqori samaradorlikdir, moliya bozorlarida mablag'larni jalb qilish imkoniyati va cheklanmagan o'sish, barqaror moliyaviy holat va yirik innovatsiyalar hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun moliyaviy potensialning mavjudligidir. Shu bilan birga, konsolidatsiyalashgan biznes o'z manfaatlarining davlat siyosati va prioritetlari bilan o'zaro farqlanishi nuqtai nazaridan ba'zi kamchiliklarga ham ega bo'lib, o'z iqtisodiy maqsadlarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan, jamiyat maqsadlarining o'rnini bosuvchi va ayrim hollarda davlat tuzilmalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan to'liq nazorat qilinmaydigan iqtisodiy subyektga aylanishi mumkin. Shuningdek, konsolidatsiyalashgan biznes iqtisodiyotning davriyligi va beqarorligi, ekologik muammolar, daromadlar taqsimotidagi asimmetriya (notenglik) ning kuchayishi, raqobatning tartibga solish funksiyasining qadrsizlanishi manbai hisoblanadi.

Zamonaviy bosqichda konsolidatsiyalashgan biznesning ahamiyati shundaki, bunday biznesning xatti-harakati va uning benefitsiarlarining qarorlari ko'p jihatdan iqtisodiy rivojlanish modelini belgilaydi, o'sish sur'atlariga, iqtisodiyotga sanksiyaviy bosim, import o'rnini bosish, qiymat yaratish zanjirlarining transformatsiyasi, ilmiy-

tadqiqot ishlarini jadallashtirish, investitsiyalash, foydani qayta investitsiyalash jarayonlariga ta'sir qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu ilmiy tadqiqot doirasida biz kompaniyalarning konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisoboti degan tushunchasiga to'xtalib o'tdik, jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki ushbu hisobot shakli ma'lum bir hududda faoliyat yurituvchi bir nechta kompaniyalarning MHXS talablariga muvofiq yagona xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida ular to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etuvchi moliyaviy hisoboti tushuniladi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining yangi tahriri qabul qilingan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi qonuning 23-modasi "Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot" deb nomlanib unda quyidagicha tarif berilgan "Asosiy xo'jalik jamiyati bo'lgan va shu'ba xo'jalik jamiyatlariga, o'z nazorati ostidagi tashkilotlarga ega buxgalteriya hisobi subyektini konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzadi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish tartibi, shuningdek asosiy xo'jalik jamiyatining nazorati ostidagi tashkilotlarga qo'yiladigan talablar buxgalteriya hisobi standartlari bilan belgilanadi" [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug'i bilan 2024-yil 12-iyulida ro'yxatdan o'tgan "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos"lari konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarga ham taalluqli bo'lib uning konseptual asoslarini belgilab berdi [2].

Shu bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish lozimligi belgilangan [3].

Yirik soliq to'lovchi tashkilotlar moliyaviy hisobotlarini, sho'ba korxonalar har yili moliyaviy hisobot shakllarini tuzish maqsadida bosh korxonalar ma'lumotlari yig'ma shaklda tuzishni belgilab beradi. Buning natijasida, bosh korxonalar sho'ba korxonalar moliyaviy hisobotlarini yig'ib, har chorak va yillik hisobotlarni yig'ib konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzadi [4-5].

"Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot: barchasi nimadan boshlangan edi" asari muallifi A.M.Gribanovskiyning fikriga ko'ra, ushbu hisobot turi quyidagi shartlar fonida vujudga kelgan:

- xolding biznesining shiddatli rivojlanishi, ko'p xil biznes turlarining yuridik jihatdan parchalanishi yoki birlashishi, konsolidatsiyaning moliyaviy afzalliklarini keltirib chiqargan bo'lib, bu qo'shilish ketish va birlashmalar to'loqini keltirib chiqardi;
- buxgalteriya hisobi va hisobotning yangi usullarini qo'llash bo'yicha to'siqlar va qoidalarining mavjud emasligi;
- yirik fond birjalari tomonidan konsolidatsiyaning ma'qullanishi" [6].

Biznesni birlashtirish bo'yicha biznes jarayonlarini hisobga olishning birligi, konsolidatsiyalashgan hisob va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning konseptual asoslarini shakllantirishni talab qiladi [7-10]. Biznes-jarayonlar majmuini aks ettirishning hisob tartib-taomillari majmui sifatida biznesni birlashtirish natijasi — bu faqat konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda o'z aksini topgan korxonalar guruhi birlashgan biznesining yangi qiymatni — narxini yaratishdan iborat bo'ladi. Konsolidatsiyalashgan hisobotda yuridik jihatdan

mustaqil korxonalar guruhining faoliyatini aks ettirish muammosi buxgalteriya hisobining ba'zi tamoyillari va usullarini aniqlashtirishni talab qiladi [11-15].

Shunday qilib, zamonaviy kompaniyalar uchun konsolidatsiya tobora zarur bo'lib bormoqda. Uning yordamida bir nechta firmalarning kapitalarini birlashtirish natijasida barqaror va raqobatbardosh biznesni yaratish mumkin. Aynan shuning uchun O'zbekistonda ham moliyaviy hisobotni konsolidatsiyalashning ahamiyati yildan yilga ortib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning asosiy konseptual g'oyasi O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlash maqsadida yirik kompaniyalarning moliyaviy ahvolini oshkor etishni samarali tashkil etish, shuningdek innovatsion va investitsiya faoliyatini rag'batlantirish vositasi sifatida konsolidatsiyalashgan hisobotning roli va ahamiyatini asoslashdan iborat. Fikrimizcha, O'zbekistonning bugungi kundagi iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bu dunyo bozorlariga chiqishdan iborat, bunda innovatsion yutuqlarni ta'minlashga qaratilgan strategik yo'nalishi moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga qaratilgan. Xalqaro standartlarning yaqqol ko'rinishlaridan biri sifatida konsolidatsiyalashgan hisobotni keltirish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda tadqiqotda umumiy ilmiy usullardan induksiya va deduksiya, monografik kuzatish qo'llaniladi, shuningdek tadqiqotning axborot asosi sifatida O'zbekistonda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, sohaga oid ilmiy asarlar, ommaviy axborot vositalari e'lon qilingan materiallar olingan.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham ko'plab kompaniyalar mustaqil yuridik shaxs bo'lib, faoliyat turlari va ko'lami bo'yicha o'xshash yoki turlicha bo'lgan korxonalarni o'zida birlashtirgan guruh tarkibida faoliyat yuritmoqda. Bir nechta kompaniyalarni guruhga birlashtirish sabablari va usullari turlicha bo'lishi mumkin: sotish bozorlarini kengaytirish imkoniyati; resurslardan eng samarali foydalanish; raqobatchilarni bartaraf etish; yetkazib berish barqarorligini ta'minlash; iqtisodiy xatarlarni kamaytirish; davriylikni bartaraf etish. Ayniqsa, guruhning har bir elementidan olingan iqtisodiy foyda yig'indisidan (sinergetik ta'sir) ko'ra umumiy guruhdan ko'proq iqtisodiy foyda olish imkoniyati yuqoriligiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Moliyaviy hisobot standartlarida konsolidatsiyaga doir umumiy qoidalar va talablar keltiriladi. Shunga qaramay, konsolidatsiyalashgan hisobotni shakllantirishning o'ziga xos tartib-taomillari, qoida tariqasida, individual xarakterga ega bo'lib, guruhning hajmi, guruhga kiruvchi kompaniyalarning joylashish geografiyasi, guruh ichidagi huquqiy va xo'jalik aloqalarining murakkabligi, guruh kompaniyalari shug'ullanadigan biznes turlari, guruh biznesini segmentlash bo'yicha yondashuvlar va boshqalar kabi omillarga bog'liq. Konsolidatsiyalashgan hisobotni shakllantirish texnikasiga kelsak, u o'z navbatida uslubiy ta'minotga, shuningdek, qo'llaniladigan texnik va dasturiy vositalarga bog'liq.

Agar korxonalar konsolidatsiyalashgan hisobotni shakllantirish jarayonida duch keladigan namunaviy muammolarni tasniflashga harakat qilinsa, bu muammolarni uslubiy va tashkiliy muammolarga ajratish mumkin.

Uslubiy muammolar konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni bevosita shakllantirish bosqichida yuzaga keladi. Ularning doirasi o'ziga xos bo'lishiga qaramay, eng tipik vazifalarni ajratib ko'rsatish mumkin, ular quyidagilardir:

- konsolidatsiyalashgan hisobot ko'rsatkichlarining o'zaro taqqoslanishini ta'minlash;

- multivalyutlilik (hisobotni konsolidatsiyalash uchun qo'llaniladigan indikatorlarni yagona valyutada aks ettirish);

- milliy buxgalteriya standartlariga muvofiq tuzilgan hisobotlarni MHXS yoki US GAAP standartlariga aylantirish;

Asosiy tashkiliy vazifalarga kelsak, ularni ikki guruhga ajratish mumkin:

- konsolidatsiyalash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish va tizimlashtirish;

- bevosita konsolidatsiya jarayonini tashkil etish, shu jumladan konsolidatsiyalashgan hisobotni shakllantirish reglamentini ishlab chiqish, unda barcha zarur tartib-taomillar, shuningdek, hujjat aylanishi va konsolidatsiyaning har bir bosqichi natijalarini rasmiylashtirish qoidalari hisobga olinishi kerak.

Yuqorida sanab o'tilgan masalalarni batafsil ko'rib chiqamiz.

Konsolidatsiyalashgan hisobot ko'rsatkichlarining o'zaro taqqoslanishini ta'minlash. Guruh tarkibiga kiruvchi kompaniyalarning hisobotlari turli hisob yondashuvlarini qo'llagan holda shakllantirilishi mumkin. Odatiy misol — amortizatsiyani hisoblash, bunda asosiy vositalarning bir xil obyektlariga nisbatan guruhning turli korxonalari turli siyosatni qo'llaydilar. Odatda, farq qo'llaniladigan amortizatsiya me'yorlaridadir. Bu turli sabablarga ko'ra tushuntiriladi: korxonalar buxgalterlari asosiy vositalar obyektining foydali ishlatish muddatini turlicha baholashi, amortizatsiya me'yoriga kamaytiruvchi yoki oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llashi mumkin va h.k. Asosiy vositalardan tashqari, hisob siyosatidagi farqlar ko'pincha tovar-moddiy zaxiralar qiymatiga ta'sir qiladi: guruh korxonalari zaxiralarni turli usullar — o'rtacha tannarx, FIFO yoki LIFO usuli bo'yicha baholashi mumkin.

Shubhasiz, konsolidatsiyalashgan hisobotni shakllantirish uchun taqqoslanadigan ma'lumotlardan foydalanish kerak, aks holda hisobotning ishonchliligi sezilarli darajada zarar ko'rishi mumkin. Shuning uchun taqqoslanishga erishish uchun guruh korxonalarining barcha ko'rsatkichlarini yagona qiymatga keltirish zarur. Qoida tariqasida, konsolidatsiyalashgan hisobotni shakllantirishda guruh bosh kompaniyasining hisob siyosatida tasdiqlangan usullar qo'llaniladi.

Konsolidatsiyalashgan hisobotga kiritiladigan ko'rsatkichlarning taqqoslanishi muammosini hal qilish muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Gap shundaki, taqqoslanishga erishish uchun sho'ba kompaniyalarning hisobotlari yo o'zgartirilishi yoki yangidan tuzilishi kerak. Bu ikkala jarayon ham juda ko'p mehnat talab qiladi. Ba'zan hisobotni buzmasdan to'liq taqqoslashga erishish umuman mumkin emas, chunki har bir korxonada aktivlar va passivlarni hisobga olish uslubiyoti davrdan davrga nisbatan ancha uzoq vaqt davomida qo'llaniladi. Bunda o'tgan davr natijalari har doim joriy davr natijalariga ta'sir ko'rsatadi. Amaliyotda ko'rib chiqilayotgan muammo, qoida tariqasida, guruhga kiruvchi korxonalar uchun yagona hisob siyosatini joriy etish yo'li bilan hal qilinadi. Bunda guruhda qabul qilingan hisob siyosatini qo'llamaydigan korxonalar konsolidatsiya uchun o'zgartirilgan hisobotni taqdim etadilar.

Multivalyutlilik. Zamonaviy moliya-sanoat guruhlari, odatda, transmilliy bo‘lib, ularning tarkibiga turli mamlakatlarda joylashgan korxonalar kiradi. Shu munosabat bilan guruh korxonalarining hisobot ko‘rsatkichlarini bosh kompaniya valyutasiga (yoki guruh tomonidan konsolidatsiyalashgan hisobotni shakllantirish uchun foydalaniladigan boshqa valyutaga) qayta hisoblash muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Valyutalarni qayta hisoblash qoidalari IAS 21 "Valyuta kurslari o‘zgarishlarining ta‘siri"da o‘z aksini topgan. Chet el sho‘ba kompaniyasining moliyaviy hisobotini qayta hisoblashda quyidagi tartib-taomillar bajariladi:

- sho‘ba korxonaning aktivlari va majburiyatlari moddalari davr oxiridagi kurs bo‘yicha qayta hisoblanadi;
- sho‘ba korxonaning daromadlari va xarajatlari moddalari davr uchun o‘rtacha kurs bo‘yicha qayta hisoblanadi. Sho‘ba korxonaning giperinflyatsion iqtisodiyotga ega bo‘lgan mamlakatda joylashgan hollar bundan mustasno, bunda daromad va xarajatlar moddalari davr oxiridagi kurs bo‘yicha qayta hisoblab chiqiladi;
- kapital va taqsimlanmagan foyda moddalari operatsiyalar amalga oshirilgan sanadagi kurslar bo‘yicha qayta hisoblanadi

Ko‘rib chiqilayotgan vazifa, ayniqsa, guruh tarkibiga turli mamlakatlardan bir nechta xorijiy kompaniyalar kirgan bo‘lsa, juda ko‘p mehnat talab qiladi. Masalani yechish konsolidatsiya jarayonini avtomatlashtirish darajasiga bog‘liq. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, aksariyat o‘rta va yirik guruhlarda ushbu muammoni avtomatlashtirish vositalarini qo‘llamasdan hal qilib bo‘lmaydi.

Milliy buxgalteriya standartlariga muvofiq tuzilgan hisobotlarni MHXS yoki US GAAP standartlariga aylantirish. Hisobotni umume‘tirof etilgan standartlar (MHXS yoki US GAAP) qoidalari bo‘yicha taqdim etish maqsadida uni transformatsiya qilish hozirgi vaqtda O‘zbekistonda juda keng tarqalgan. Ko‘pgina milliy korxonalar va kompaniyalar guruhlarining chet ellik aksiyadorlari bor, ular odatda umume‘tirof etilgan qoidalar bo‘yicha shakllantirilgan hisobotlarga ko‘proq ishonadilar. Bundan tashqari, aksariyat xorijiy moliya bozorlarida umum e‘tirof etilgan standartlar bo‘yicha tuzilgan hisobotlarni taqdim etish qimmatli qog‘ozlarni ro‘yxatdan o‘tkazishning majburiy sharti hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda milliy korxonalar faqat MHXS yoki US GAAPga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritish imkoniyatiga ega emas, chunki qonunchiligimiz milliy hisob standartlarini qo‘llashni talab qiladi. Shuningdek, buxgalteriya va soliq qonunchiligi o‘rtasida ba‘zi o‘zaro bog‘liqliklar mavjud bo‘lib, buning natijasida soliq bazasini hisoblash va soliq nazoratini amalga oshirish uchun alohida buxgalteriya hisobi ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi. Shunday qilib, MHXS yoki US GAAP standartlari bo‘yicha tuzilgan buxgalteriya hisobotini olish uchun milliy korxonalar parallel hisob yuritishlari (milliy qoidalari bo‘yicha, plyus xalqaro standartlar qoidalari bo‘yicha) yoki hisobotlarni transformatsiya qilishlari kerak.

Xulosa va takliflar. Sifatli konsolidatsiyalashgan hisobotni shakllantirish ma‘lum xarajatlarni talab qiladi va ushbu xarajatlar guruh tarkibidagi korxonalarni samarali boshqarish uchun umumiy ma‘lumotlardan oqilona foydalanish orqali qoplanishi kerak. Xususan, konsolidatsiyalashgan hisobotni tuzishda olingan ma‘lumotlardan segmentli hisobotni shakllantirish, byudjetlashtirish, guruh tarkibidagi o‘zgarishlarni rejalashtirish va boshqalar uchun foydalanish mumkin.

Ko'pgina amaliyotchi mutaxassislarning fikriga ko'ra, ushbu vazifalarni hal qilish aksariyat hollarda nisbatan juda past darajada: hisobotlarni konsolidatsiya qilish jarayonida olingan ma'lumotlar guruhni boshqarish uchun deyarli ishlatilmaydi. Odatda, bu qo'llaniladigan texnologik yechimlarni erkin manipulyatsiya qilish imkonini bermasligi bilan bog'liq. Shunday qilib, konsolidatsiyalashgan hisobotni shakllantirish bilan bog'liq xarajatlar va ushbu hisobotni shakllantirishdan kutilayotgan afzalliklar o'rtasidagi nomuvofiqlik vujudga keladi.

Amaliy masalalarni faqat guruh tarkibini moslashuvchan tavsiflash, segmentli hisobotni shakllantirish, shuningdek, guruh tarkibiga qarab ko'p variantli hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini beruvchi dasturiy vositalarni qo'llash orqali muvaffaqiyatli hal qilish mumkin. Aytaylik, amaldagi qoidalarga ko'ra, konsolidatsiyalashgan hisobotga kiritilmasligi kerak bo'lgan korxonalar mavjud, ammo ularning ko'rsatkichlari rahbariyat tomonidan boshqaruv maqsadlarida birlashtiriladi. Bunday holda, qo'shimcha tuzilma va tegishli ma'lumotlarni tavsiflash mumkin, shundan so'ng foydalanuvchi ushbu tashkilotlar guruhning "to'liq" a'zolari kabi konsolidatsiyalashgan hisobotni olishi mumkin. Shu asosda mumkin bo'lgan sotib olishlar va qo'shib yuborishlarning oqibatlarini tahlil qilish mumkin. Ixtisoslashtirilgan tizimlarda qo'llaniladigan moslashuvchan usullar konsolidatsiyalashgan hisobotni bir vaqtning o'zida bir nechta standartlarda taqdim etish imkonini beradi: BHMS, MHXS, US GAAP.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi (yangi tahriri) Qonuni, 13.04.2016 yildagi O'RQ-404-son. <https://lex.uz/uz/docs/-2931253>.
2. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asosni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i, 12.07.2024 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3530. <https://lex.uz/docs/-7015916>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son. <https://lex.uz/docs/-4746047>
4. Абдирахимова, Х., Ахмадов, С., & Эшонкулов, А. (2022). Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning muammo va istiqbollari. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(1), 10-15.
5. Tohirovich, Q. N. (2021). International financial accounting standards in Uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 328-333.
6. Грибановский, А. М. (2010). Консолидированная финансовая отчетность: с чего все начиналось. *Корпоративная финансовая отчетность. Международные стандарты*, (2), 57-61.
7. Исаев, Д. В., & Кравченко, Т. К. (2006). Автоматизированные системы формирования консолидированной финансовой отчетности. Москва.
8. Shokiraliyevich, G. I., Erkinjon o'g, M. U. B., & Tohirovich, Q. N. (2022). **MOLIYAVIY HISOBOTLARNI MHXS BO'YICHA TRANSFORMATSIYASINING**

ZARURATI, MOHIYATI VA DOLZARBLIGI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 339-344.

9. Эрматов, А. А., & Гафурова, М. М. (2022). Совершенствование учета собственного капитала в условиях перехода на МСФО. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 3(12), 8-16.

10. Ibragimovna, K. K. (2023). Comparative Characteristics of Management and Financial Accounting. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(10), 1-7.

11. Ли, Е. А. (2024). Особенности составления консолидированной отчетности в мультипликативных предприятиях: выпускная бакалаврская работа по направлению подготовки: 38.03. 01-Экономика.

12. Исманов, И. Н., & Савинова, Г. А. (2021). Сопоставление Некоторых Аспектов Национальных Стандартов Бухгалтерского Учета и МСФО. *Central Asian Journal Of Innovations On Tourism Management And Finance*, 2(11), 14-19.

13. Atabayeva, Z. (2024). Enhancing Financial Management Through Automated Accounting Solutions. *International Journal of Scientific Trends*, 3(11), 1-6.

14. Кудбиев, Д., & Мамарасулов, Д. (2024). ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ В СООТВЕТСТВИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ. *Nashrlar*, 81-84.

15. Малиновская, Н. В., & Гафаров, М. М. (2024). Связанность информации консолидированной финансовой и нефинансовой отчетности. *Вестник Академии знаний*, (1 (60)), 235-238.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

